



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# **SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR-IYUN  
OYLARI MA'LUMOTLARI**


**Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-202-80-46**

## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-iyun oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5514,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 110,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (55,7 %) ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3072,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**B** – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 18,8 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyun oylarida, % da)**




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3073,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 55,7 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(yanvar-iyun oylarida, % da)**




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,4 % ni (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,6 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 3,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,8 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 19,6 %) va quyi texnologiyalisi – 75,2 % (2021- yilning yanvar-iyun oylarida – 72,0 %) ni tashkil etdi.


**Yuqori texnologiyali**




**O'rta-yuqori texnologiyali**



**O'rta-quyi texnologiyali**



**Quyi texnologiyali**




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % spirt	231,3	173,5	-57,8
Sellyuloza, kg 90%	678468	3361097	2682629
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan gormonlar va antibiotiklar, t	3228,0	984,3	-2243,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	27,8	35,7	7,9
Paxta tolasi, ming t.	11,8	13,9	2,1

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**  
(yanvar-iyun oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,9 % ni, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 17,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 809,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)

**FHI**  
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,5 % ga kamaygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 85,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 18,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-iyun oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 161,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 163,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1048,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
% da




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-iyun oylarida)



FHI  
% da



2020- y. 2021- y. 2022- y.

2021-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 149,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi 78,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 149,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar-iyun oylarida)

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 50,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 56,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI  
% da



2020- y. 2021- y. 2022- y.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


yanvar-iyun oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashkorxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2376,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (43,1 %) ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** (yanvar-iyun oylarida, % da)




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	8070,2	8360,8	290,6
Issqlik energiyasi, ming gkal	56,6	95,7	39,1



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-iyun oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.


## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *(yanvar-iyun oylarida, % da)*



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	21475,2	18471,0	-3004,2
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1170,6	4472,0	3301,4
Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	7130,4	7758,6	628,2

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2306,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 36,7 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,8 % ni, Mirzaobod tumani 9,6 % ni hamda Guliston tumani 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatning o'sish sur'ati (122,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumani (174,3 %), Boyovut tumani ( 150,4 %), Guliston tumani (144,5 %), Xovos tumani (131,8 %), Sirdaryo tumani (130,3 %), Shirin shahri (128,5 %) hamda Sayxunobod tumanida (123,6 %) qayd etildi.
















**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*2022-yilning yanvar-iyun oylarida*

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	2306,4	100	122,8	<b>Sirdaryo viloyati</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	384,2	16,8	114,9		49,9	2,2	111,2
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	20,1	0,9	128,5		112,4	4,9	123,6
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	167,3	7,3	103,4		858,8	37,2	115,0
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	134,0	5,9	150,4		106,3	4,6	131,8
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>			
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>				
	202,1	8,8	144,5				
<b>Guliston</b>							
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>				
	218,8	9,6	174,3				
<b>Mirzaobod</b>							
	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>				
	52,4	2,3	107,3				
<b>Oqoltin</b>							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 46,1 % shuningdek, Mirzaobod tumani 12,6 %, Guliston tumani 12,2 % va Guliston shahri 10,7 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-iyun oylarida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da			
	1490,4			100			136,8			
<b>Sirdaryo viloyati</b>										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	5,7	0,4	101,8
	158,1	10,6	136,3		697,8	46,8	123,1			
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	5,9	0,4	86,6
	11,4	0,8	177,3		697,8	46,8	123,1			
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	697,8	46,8	123,1
	132,2	8,9	119,5		697,8	46,8	123,1			
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	41,6	2,8	152,3
	63,8	4,3	242,9		41,6	2,8	152,3			
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	179,2	12,0	152,5							
<b>Guliston</b>										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	184,9	12,4	200,8							
<b>Mirzaobod</b>										
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da							
	9,9	0,7	71,7							
<b>Oqoltin</b>										

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga kelib 27,7 % ni, shuningdek, Sirdaryo 19,6 % ni, Sayxunobod 13,1 % ni, Boyovut tumanlari 8,6 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-iyun oylarida
















Mlrd. so'm		Ulushi % da		O'sishi % da	
815,9		100		103,4	
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
226,1	27,7	103,5	44,2	5,4	112,6
<b>Guliston sh</b>			<b>Sardoba</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
8,7	1,1	94,6	106,5	13,1	126,5
<b>Shirin sh</b>			<b>Sayxunobod</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
35,1	4,3	68,5	161,0	19,6	89,6
<b>Yangiyer sh</b>			<b>Sirdaryo</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
70,3	8,6	111,7	64,7	7,9	121,2
<b>Boyovut</b>			<b>Xovos</b>		
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
22,9	2,8	102,4			
<b>Guliston</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
33,9	4,3	101,7			
<b>Mirzaobod</b>					
Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da			
42,5	5,2	121,4			
<b>Oqoltin</b>					

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2022- yilning yanvar- iyun oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1005,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.

**Viloyatning hududlari kesimida**  
**sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

*2022- yilning yanvar-iyun oylarida*

	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>			
	5514,6			100,0			110,4			
<b>Sirdaryo viloyati</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	491,8	8,9	100,3		50,1	0,9	104,6			
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	2281,4	41,4	114,8		213,4	3,9	100,8			
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	265,6	4,8	93,2		1168,6	21,1	117,4			
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	291,4	5,3	114,8		108,6	2,0	106,6			
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	203,0	3,7	114,1							
<b>Guliston</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	231,8	4,2	122,1							
<b>Mirzaobod</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	208,9	3,8	100,2							
<b>Oqoltin</b>										

## Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,4 %), Sirdaryo tumani (21,1 %), Guliston shahri (8,9 %), Boyovut tumani (5,3 %), va Yangiyer shahri (4,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.
















Eng past ko'rsatkich esa Xovos (2,0 %) hamda Sardoba (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (119487,2 ming so'm), Sirdaryo tumanida (8793,6 ming so'm) hamda Guliston shahrida (5177,4 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6246,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2598,4 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida – 6329,2 ming so'mni, Guliston shahrida – 4044,9 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 3665,7 ming so'mni, Mirzaobod tumanida – 2829,3 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2022- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so'm**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>		<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		
	6246,5		2598,4		
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	5177,4	4044,9		732,4	729,5
	<b>Guliston sh</b>			<b>Sardoba</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	119487,2	1052,4		2655,8	1399,1
	<b>Shirin sh</b>			<b>Sayxunobod</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	5819,2	3665,7		8793,6	6329,2
	<b>Yangiyer sh</b>			<b>Sirdaryo</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	2168,6	997,6		1094,2	1070,5
	<b>Boyovut</b>			<b>Xovos</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2661,9	2649,3			
	<b>Guliston</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2996,7	2829,3			
	<b>Mirzaobod</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	3856,9	967,0			
	<b>Oqoltin</b>				




## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1642,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sayxunobod (77,9 %), Xovos tumanlarida (77,5 %) hamda Yangiyer shahrida (63,9 %) kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Oqoltin tumanida (23,2 %), Sirdaryo tumani (47,8 %), Guliston tumanida (25,7 %) hamda Shirin shahrida (0,6 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2236 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 544 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,3 %) Guliston shahriga, 373 tasi (16,7 %) Sirdaryo tumaniga, 191 tasi (8,5 %) Boyovut tumaniga, 188 tasi (8,4 %) Yangiyer shahriga, 182 tasi (8,1 %) Mirzaobod tumaniga, 175 tasi (7,8 %) Sayxunobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 202 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 43 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi (21,3 %) Guliston shahrida, 28 tasi (13,9 %) Sirdaryo, 27 tasi (13,4 %) Sayxunobod, 21 tasi (10,4 %) Guliston hamda 20 tasi (3,1 %) Mirzaobod tumanlarida tashkil etildi.